

“O’ZKIMYOSANOAT”
AKSIYADORLIK JAMIYATI

BUYRUQ

2023-yil “29” 12

199-son

Toshkent shahri

O’zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi O’RQ-684-son Qonuni, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-iyundagi “Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta’minalash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PF-6247-son Farmoni, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-sentabrdagi “O’zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-3953-son qarori, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 1-maydagi “Sanoat kooperatsiyasini yanada rivojlantirish va talab yuqori bo‘lgan mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4302-son qarori, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 21-avgustdagи “Mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo’llab-quvvatlashga doir qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-4812-son qarori, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-iyuldagi “Davlat xaridlari shaffofligini ta’minalash va samaradorligini oshirishga doir qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-5171-son qarori, O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 30-sentabrdagi “Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi raqamli transformatsiya markazining elektron kooperatsiya portalida axborotni joylashtirish va xaridlarini amalga oshirish tartibini tasdiqlash to‘g‘risida” 833-son qarori, O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-maydagi “Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog‘liq tartib-taomillarni tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 276-son qarori ijolarini ta’minalash maqsadida

BUYURAMAN:

1.“O’zkimyosanoat” AJ va barcha tarmoq korxonalari uchun xaridlar sohasidagi munosabatlarni tartibga solish maqsadida Xaridlar siyosati 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. “O’zkimyosanoat” AJning 2022-yil 7-noyabrdagi 170-son buyrug‘ining 2-bandи o‘z kuchini yo‘qotgan deb topilsin.

3. “O’zkimyosanoat” AJning xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va shakllantirish uchun eng yaxshi takliflarni tanlash, tenderni elektron o‘tkazish va xaridlarga oid shikoyatlarni ko‘rib chiqish bo‘yicha xarid komissiyasi a’zolari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. “O‘zkimyosanoat” AJ markaziy apparatida davlat xaridlari doirasida xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va o‘tkazishga G‘aznachilik operatsiyalari va ichki xaridlar bo‘limi mas’ul etib belgilansin.

5. Xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va o‘tkazishning qonuniyligini ta’minlash xarid komissiyasi zimmasiga yuklatilsin.

6. Ushbu buyruqning ijro nazoratini o‘z zimmamda qoldiraman.

Boshqaruv raisi v.b.



T. Muxamedjanov